



IJTIMOIIY-GUMANITAR SOHADA ILMIY-INNOVATSION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNALI

ISSN 3060-5059



VOL.3 № 4

2026

ABU NASR FOROBIYNING IJTIMOYIY-FALSAFIY MEROSI VA UNING JAMIYAT RIVOJIDAGI O'RNI

Ochilova Go'zal Aralovna

Shahrisabz davlat pedagogika institute (aniqlashtirish kere ish joyi yozilmagan faqat ishi),
professori

Sohibova Kumush Bekzod qizi

Shahrisabz davlat pedagogika instituti, magistranti

Annotatsiya

Abu Nasr Forobiyning falsafiy merosi Sharq va G'arb mintaqalari ijtimoiy-falsafiy tafakkurining shakllanishida poydevor vazifasini o'tagan. Allomaning "Fozil odamlar shahri", "Mantiqqa kirish", "Baxt-saodatga erishuv haqida" kabi asarlari borliqning kelib chiqishi, jamiyat boshqaruvi, aql va bilish falsafasini tahlil etadi. Forobiy asarlari nafaqat metafizika, balki mantiq, siyosatshunoslik va pedagogika sohalariga ham chuqur ilmiy asos yaratgan. Uning insonparvarlik qarashlari jahon ilm-fani hamda sivilizatsiyasi rivojiga yangicha yondashuv olib keldi.

Kalit so'zlar: Abu Nasr Forobiy, risola, peripatetizm, mantiq, Aristotel, fozil shahr, borliq, metafizika.

СОЦИАЛЬНО-ФИЛОСОФСКОЕ НАСЛЕДИЕ АБУ НАСРА ФАРАБИ И ЕГО РОЛЬ В РАЗВИТИИ ОБЩЕСТВА

Очилова Гузал Араловна

Шахрисабзский государственный педагогический институт, профессор

Сохибова Кумуш Бекзод кизи

Шахрисабзский государственный педагогический институт, магистрант

Аннотация

Философское наследие Абу Насра аль-Фараби послужило фундаментом для формирования социально-философской мысли регионов Востока и Запада. Такие произведения мыслителя, как «Город добродетельных людей», «Введение в логику», «О достижении счастья», анализируют вопросы происхождения бытия, управления обществом, философии разума и познания. Труды Аль-Фараби заложили глубокую научную основу не только для метафизики, но и для таких областей, как логика, политология и педагогика. Его гуманистические взгляды привнесли новый подход в развитие мировой науки и цивилизации.

Ключевые слова: Абу Наср аль-Фараби, трактат, перипатетизм, логика, Аристотель, добродетельный город, бытие, метафизика.

THE SOCIO-PHILOSOPHICAL HERITAGE OF ABU NASR FARABI AND ITS ROLE IN SOCIAL DEVELOPMENT

Ochilova Go'zal Aralovna

Shahrisabz State Pedagogical Institute, Professor

Sohibova Kumush Bekzod qizi

Shahrisabz State Pedagogical Institute, Master's Student

Abstract

The philosophical heritage of Abu Nasr Farabi played a foundational role in shaping socio-philosophical thought in both Eastern and Western traditions. In his works such as "*The Virtuous City*," "*Introduction to Logic*," and "*On the Attainment of Happiness*," he explores the nature of being, social governance, reason, and cognition. Farabi's doctrine significantly influenced not only metaphysics but also the development of logic, political science, and

pedagogy. His humanistic ideas have been recognized as an important theoretical foundation for the advancement of world science and civilization.

Keywords: Abu Nasr Farabi, treatise, Peripateticism, logic, Aristotle, virtuous city, being, metaphysics.

Abu Nasr Forobiy oʻrta asrlar Sharqining eng yirik qomusiy olimi va mutafakkiri boʻlib, uning ilmiy faoliyati nafaqat islom olami, balki jahon falsafiy tafakkuri rivoji uchun ham poydevor vazifasini oʻtagan. Tadqiqotning maqsadi — allomaning falsafiy merosi, xususan, **“Fozil odamlar shahri”**, **“Mantiqqa kirish”**, **“Siyosat al-madaniya”** va **“Baxt-saodatga erishuv haqida”** kabi asarlarining mazmun-mohiyatini, ularning jamiyat boshqaruvi va inson kamoloti haqidagi gʻoyalarni tizimli tahlil qilishdan iborat. Akademik M. Xayrullayev taʼkidlaganidek, Forobiy antik yunon falsafasini islomiy dunyoqarash bilan sintez qilgan Sharq peripatetizmining asoschisi va **“Ikkinchi muallim”** (*al-muallim as-soniy*) hisoblanadi [3; 112].

Abu Nasr Forobiy oʻrta asrlar Sharqining eng yirik mutafakkiri sifatida tarixda alohida oʻrin egallaydi. Uning ilmiy faoliyati nafaqat islom renessansi, balki butun Gʻarb sivilizatsiyasi taraqqiyoti uchun ham muhim turtki boʻlgan. Forobiy Forob (Oʻror) shahrida tugʻilib, Bagʻdod, Damashq va Misr kabi yirik ilm markazlarida yashagan. U yerda turli ustozlardan saboq olib, matematika, mantiq, astronomiya, tilshunoslik, musiqa va falsafa kabi dunyoviy ilmlarni chuqur egallagan. Forobiy yunon olimlari — Aristotel, Platon, Pifagor va boshqalarning asarlarini chuqur oʻrganib, ularga sharhlar yozgan. Olimdan bizga 160 dan ortiq asar meros qolgan boʻlib, ularning aksariyati falsafa, mantiq, sotsiologiya va pedagogika masalalariga bagʻishlangan.

Forobiyning bizgacha yetib kelgan asarlari orasida ijtimoiy-siyosiy qarashlarni oʻz ichiga olgan **“Fozil odamlar shahri”**, mantiq ilmining asosiga bagʻishlangan **“Mantiqqa kirish”**, shuningdek, **“Baxt-saodatga erishuv haqida”**, **“Ilmlarning kelib chiqishi va tasnifi”** hamda musiqashunoslikka oid **“Kitob al-musiqa al-kabir”** asarlari alohida ahamiyatga ega. Forobiyning falsafiy tizimi oʻrta asrlar Sharq peripatetizmining nazariy asosi boʻlib, u mantiqiy tafakkur va ijtimoiy-axloqiy tamoyillarni oʻzaro uygʻunlashtirgan. Forobiy taʼlimotida jamoaviy tarbiya shaxsning ijtimoiylashuvidagi asosiy omil hisoblanadi [7; 44].

Metodlar

Ushbu tadqiqotda quyidagi metodlardan foydalanildi:

Tarixiy-qiyosiy tahlil — Forobiyning antik yunon falsafasi (Aristotel, Platon) anʼanalarini davom ettirishi hamda uning qarashlari keyingi davr Sharq mutafakkirlari (Ibn Sino, Ibn Rushd) ijodiga koʻrsatgan taʼsiri va merosiy bogʻliqligi oʻrganildi.

Tizimli yondashuv — allomaning ilmlar tasnifi, fozil jamiyat qurish modeli va inson kamoloti haqidagi ijtimoiy-falsafiy gʻoyalari yaxlit bir tizim sifatida umumlashtirildi.

Matnshunoslik tahlili — mutafakkirning bevosita asarlari (**“Fozil odamlar shahri”**, **“Mantiqqa kirish”**, **“Siyosat al-madaniya”**) va ularga yozilgan zamonaviy sharhlar (M. Xayrullayev, I. Moʻminov, A. Qosimov kabi olimlarning tadqiqotlari) asos qilib olindi.

Natijalar

Tadqiqot natijasida Forobiy falsafasining bir necha ustuvor yoʻnalishlari aniqlandi. Borliq va bilish nazariyasi doirasida mutafakkir borliqni olti martabaga — vujud avvaldan tortib moddiy ashyolargacha — ajratadi hamda inson kamolotida aqlning oʻrnini fundamental tarzda asoslab beradi.

Olimning ijtimoiy-siyosiy va pedagogik qarashlari, xususan, **“Fozil odamlar shahri”** asari tahlili shuni koʻrsatadiki, u jamiyatni tirik organizmga qiyoslaydi va davlat boshqaruvida rahbarning intellektual hamda axloqiy fazilatlarini asosiy oʻringa qoʻyadi. Forobiy oʻz pedagogik tizimida taʼlim va tarbiya uygʻunligini, yaʼni nazariy bilimlarni axloqiy odob bilan mustahkamlashni shaxs kamolotining bosh mezoni deb hisoblaydi.

Shuningdek, **“Baxt-saodatga erishuv haqida”** asarida inson baxti shunchaki moddiy farovonlik emas, balki intellektual yetuklik va fozillik orqali erishiladigan oliy maqsad sifatida

talqin etilgan bo'lib, bunda jamiyatning har bir a'zosi umumiy manfaat yo'lida hamkorlik qilishi lozimligi ilmiy asoslangan.

Munozara

Forobiy falsafiy qarashlarining asosini uning dunyoning tuzilishi haqidagi panteistik ta'limoti tashkil etadi. Bu ta'limotga ko'ra, butun mavjudot — borliq yagona boshlang'ichdan bosqichma-bosqich yuzaga kelgan. Bu jarayon oltita bosqichdan iborat bo'lib, ular o'zaro sababiyat orqali bog'langan. Bunda birinchi bosqich — **“vujudi vojib”**, ya'ni o'z-o'zidan zaruriy mavjud bo'lgan yagona Olloh (*as-sabab al-avval*); ikkinchi bosqich — **“vujudi mumkin”**, ya'ni osmon jismlari, ikkinchi sabab (*as-sabab as-soniy*); uchinchi bosqich — faol aql (*al-aql al-faol*); to'rtinchi bosqich — tirik mavjudotlarga xos jon (*an-nafs*); beshinchi bosqich — narsa va hodisalarning shakli (*as-surat*); oltinchi bosqich esa — narsa va hodisalarning jismi, tanasi, ya'ni moddadir. Ushbu bosqichlarning barchasi o'zaro sababiy bog'langan.

Abu Nasr Forobiyning **“Ilmlarning kelib chiqishi va tasnifi”** asari orqali ilmlarni tizimlashtirishi o'rta asrlar ilm-fani metodologiyasining shakllanishiga xizmat qilgan. Allomaning din va falsafani mantiqiy asosda uyg'unlashtirishi keyinchalik Sharq peripatetizmi va ijtimoiy falsafa rivojiga poydevor bo'lgan [5; 76]. Uning **“fozil jamoa”** konsepsiyasi esa jamiyatni boshqarishda zamonaviy sotsiologiya va siyosatshunoslik tamoyillari bilan hamohangdir.

Bugungi kunda Forobiyning mantiqiy xulosalari ilmiy bilishda deduktiv va induktiv metodlarning sintezi sifatida o'z ahamiyatini yo'qotmagan. Forobiyning falsafiy qarashlari **“Fozil odamlar shahri”** asarida keng bayon etilgan. U shaharning o'zini ijtimoiy uyushishning yetuk shakli, insoniyatning kamolotga erishuvdagi muhim vosita deb hisoblaydi. Mutafakkir insonlarni o'zaro hamkorlikka, xalqlarni o'zaro do'stlikka, tinchlikka chaqirib, dunyoda yagona insonlar jamiyatini tuzishni orzu qiladi.

U o'zining **“Baxt-saodatga erishuv yo'llari haqida risola”** asarida: *“Davlatning vazifasi insonlarni baxt-saodatga olib borishdir, bu esa ilm va yaxshi axloq yordamida qo'lga kiritiladi”*, deb yozadi. Shuningdek: *“Insoniy baxtga erishish uchun avvalo nazariy fazilatlarini, so'ngra amaliy san'at va axloqiy fazilatlarini egallash lozim”* [2; 48], deya ta'kidlaydi.

Forobiy davlatni har tomonlama yetuk, yuksak fazilatlarga ega, xalq tomonidan tan olingan kishilar boshqarishi lozimligini qayd etadi. Davlatni yetuk kishilar boshqargandagina fozil jamiyat, fozil shahar va fozil mamlakat qaror topadi. Fozil jamiyat shunday bo'ladiki, uning har bir a'zosi kasb-hunar va ilm-fanni egallash bilan shug'ullanadi. Bunday davlatda odamlar chin ma'noda ozod va erkin bo'ladilar. Bunday jamoani boshqaruvchi kishi yoki kishilar guruhi o'zida bir necha muhim sifatlarni mujassam etishi zarur: adolatli bo'lish, dono bo'lish, qonunlarga qat'iy rioya qilish, yangi qonunlar yarata olish, kelajakni oldindan ko'ra bilish va boshqalarga g'amxo'r hamda mehribon bo'lish.

Forobiyning fozil jamoa, fozil davlat va fozil rahbar haqidagi ta'limoti uning komil inson haqidagi qarashlari bilan uzviy bog'liqdir. U shunday yozadi: *“Shahar (davlat) a'zolarining bir-biriga yordam berishi natijasida sodir bo'lgan jamoa fozil jamoa (fozil shahar) hisoblanadi”* [1; 85]. Mutafakkirning qarashicha, aynan fozil jamoadagina komil inson sifatlari kamol topadi. Uning bu ta'limoti insonni ma'naviy ozod etishga, imkoniyatlari, qobiliyati va iste'dodini ochib berishga xizmat qilib, ilg'or ijtimoiy tafakkur taraqqiyotiga ulkan hissa bo'lib qo'shildi.

Forobiy o'z falsafiy qarashlarida insoniylikni ulug'laydi. U bu haqida shunday yozadi: *“Odamlarga nisbatan ularni birlashtirib turuvchi ibtido — insoniylikdir, shu tufayli odamlar odamzod turkumiga oid bo'lganligi uchun ham o'zaro tinchlikda yashamoqlari lozim.”*

Forobiy **“Aql ma'nolari haqida”** risolasida aql muammosini chuqur tahlil qilib, aqlni bir tomondan ruhiy jarayon, ikkinchi tomondan esa tashqi ta'sir, ya'ni ta'lim-tarbiyaning natijasi sifatida talqin qiladi. Uning fikricha, aql faqat insongagina xos bo'lgan ruhiy quvvat bilan bog'liq qobiliyat bo'lib, insonni hayvondan ajratuvchi asosiy omildir. *“Tarbiyaning maqsadi — insonda yaxshi axloqiy xislatlarni odatga aylantirish va uni baxtga tayyorlashdir”* [6; 92].

Forobiy o'z bilish nazariyasida Platonning g'oyalar dunyosi va g'oyalarning tug'ma

bo‘lishi haqidagi ta’limotiga qarshi chiqib, tushunchalarning borliqdan, real voqelikdan olinishi haqida fikr yuritadi. Masalan, matematik tushunchalar — nuqta, chiziq, doira va sath kabi geometrik tushunchalar real mavjud narsalarning inson ongidagi ifodasidir.

Forobiy ilmlarni besh asosiy guruhga ajratadi:

1. til haqidagi ilm;
2. mantiq;
3. matematika;
4. tabiiy va ilohiy fanlar (metafizika);
5. fuqarolik ilmi (siyosat), huquq va kalom.

Metafizika oliy ilm sifatida borliqning umumiy qonuniyatlarini o‘rganadi. Olim insonni tana va nafs (ruh)dan tashkil topgan deb biladi. Uning metafizikaga oid qarashlari Aristotel ta’limotini tizimlashtirib, yangi bosqichga olib chiqdi. Forobiy inson kamolotini uning aqliy yetukligida va **“faol aql”** bilan bog‘lanishida ko‘radi.

Abu Nasr Forobiyning **“Mantiqqa kirish”** asari mantiq ilmining poydevorini belgilab beruvchi eng muhim risolalardan biri hisoblanadi. Mazkur asar o‘rta asrlar falsafiy tafakkuri rivojiga mislsiz ta’sir ko‘rsatgan bo‘lib, uni o‘rganish bugungi kunda ham dolzarbdir. Alloma bu asarida mantiqni shunchaki fan emas, balki barcha ilmlarning kaliti va asosi deb ta’riflaydi. Alloma ilmlar tasnifida til va mantiqni barcha fanlarning kaliti sifatida birinchi o‘ringa qo‘yadi [4; 154].

Forobiy fikricha, mantiq insonning fikrlash doirasini tartibga soladi va uni xato xulosalar chiqarishdan himoya qiladi. Asarning asosiy maqsadi — o‘quvchini Aristotelning mantiqiy tizimi bilan tanishtirish va murakkab g‘oyalarni sodda tilda tushuntirishdan iborat. Alloma mantiqiy qonuniyatlarni inson nutqi va tili bilan chambarchas bog‘liq holda o‘rganadi.

Forobiy asarida mantiqiy tushunchalarni **“tasavvur”** va **“tasdiq”** kabi ikki yirik qismga ajratib tahlil qiladi. Tasavvur orqali narsalarning mohiyati anglashilsa, tasdiq orqali hukmlarning haqiqiyliги isbotlanadi. Asarda mantiqiy amallarning, xususan, ta’rif va isbotning ahamiyati katta ekanligi uqtiladi. Forobiy ilmiy metodida deduktiv xulosa chiqarish va mantiqiy tasniflash asosiy o‘rin tutadi [10; 52].

Forobiy xulosa chiqarish san’ati bo‘lgan **“qiyos”** (sillogizm) usuliga ham alohida to‘xtaladi. Uning fikricha, har qanday ilm mantiqiy isbotga tayanmasa, haqiqiy ilm hisoblanmaydi. Risolada mantiqiy xatolarning sabablari va ularni bartaraf etish yo‘llari ham batafsil ko‘rsatib berilgan. Mutafakkir inson aqliy faoliyatini mantiqiy qoliplarga solish orqali haqiqatga erishish mumkinligini isbotlaydi.

“Mantiqqa kirish” asari o‘sha davr ta’lim tizimida asosiy darslik sifatida keng qo‘llanilgan. Bu asar orqali Sharq dunyosida antik davr falsafasini tushunishga yangicha yondashuv shakllandi. Forobiy mantiq ilmini diniy va dunyoviy ilmlarni bir-biridan ajratish yoki muvofiqlashtirishda muhim vosita sifatida ishlatgan. Allomaning ushbu asari keyinchalik Ibn Sino va boshqa buyuk mutafakkirlar uchun mantiqiy maktab vazifasini o‘tadi.

Xulosa

Abu Nasr Forobiyning falsafiy merosi ilm, aql va ijtimoiy adolat uyg‘unligining yorqin namunasidir. Uning g‘oyalari insonni intellektual yetuklikka, jamiyatni esa hamkorlik va o‘zaro yordamga asoslangan **“fozil jamoa”** barpo etishga chorlaydi. Fozil shahar rahbari nafaqat dono siyosatchi, balki yuksak ma’naviyatli faylasuf ham bo‘lishi shart [8; 65].

Alloma asarlari nafaqat tarixiy meros, balki zamonaviy ijtimoiy-siyosiy va axloqiy muammolarni hal etishda muhim nazariy manba bo‘lib xizmat qiladi. Uning borliqni martabalarga ajratish orqali yaratgan ontologik ta’limoti nafaqat Sharq peripatetizmining nazariy poydevori, balki zamonaviy metodologik izlanishlar uchun ham asos bo‘lib, mantiqiy tafakkur va ilmiy bilishning o‘zaro muvozanatini belgilab beradi.

Forobiyning **“Fozil odamlar shahri”** asarida ilgari surilgan davlat boshqaruvi va ijtimoiy tartibga oid qarashlari bugungi kunning sotsiologik va siyosiy muammolariga javob bera

oladigan darajada hayotiy bo'lib, jamiyatni umumiy baxt-saodatga yetaklashning fundamental dasturi hisoblanadi. Shu bilan birga, mutafakkirning ta'lim va tarbiya haqidagi qarashlari inson kamolotini faqatgina bilim egallashda emas, balki axloqiy poklanish va fozillikning uzviy birligida ko'radi. Olimning estetik qarashlarida go'zallik va kamolot tushunchalari bir-birini to'ldiruvchi fundamental kategoriyalardir [9; 108].

Forobiy falsafasidagi aql va e'tiqod, nazariya va amaliyot sintezi insoniyatning intellektual taraqqiyotiga ulkan hissa qo'shish bilan birga, bugungi kunda ham ma'naviy-ma'rifiy islohotlar hamda komil inson g'oyasini rivojlantirishda o'zining strategik ahamiyati va ilmiy qiymatini yo'qotmagan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Abu Nasr Forobiy. Fozil odamlar shahri. — Toshkent: Yangi asr avlodi, 2016.
2. Abu Nasr Forobiy. Baxt-saodatga erishuv haqida. — Toshkent: Fan, 2012.
3. Xayrullayev M. M. Abu Nasr Al-Forobiy: hayoti va ijodi. — Toshkent: Fan, 1961.
4. Xayrullayev M. M. O'rta Osiyoda uyg'onish davri (IX–XII asrlar). — Toshkent: Fan, 1971.
5. Mo'minov I. M. O'zbekiston tarixida ijtimoiy-falsafiy fikrning rivojlanishi. — Toshkent: Fan, 1964.
6. Zunnunov A. Pedagogika tarixi. — Toshkent: Sharq, 2004.
7. Inomova M. Ma'naviy-axloqiy tarbiya asoslari. — Toshkent: TDPU, 2005.
8. Qosimov A. Forobiyning ijtimoiy-siyosiy qarashlari. — Toshkent: Istiqlol, 2010.
9. Qahhorova S. Sharq falsafasi va ma'naviyati masalalari. — Toshkent: Falsafa va huquq, 2008.
10. Fayzullayev O. Falsafa va fan. — Toshkent: Fan, 2002.